

## ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR

2018 yil yanvar-sentyabr martda viloyatning asosiy kapitalini ko'paytirishga 4015,2 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar kiritildi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 135,1 foizni tashkil qildi.

### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi

	<i>mlrd.so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan foiz</i>
<b>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</b>	<b>4015,2</b>	<b>135,1</b>	<b>100</b>
<i>shu jumladan:</i>			
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>512,3</b>	<b>119,5</b>	<b>12,7</b>
byudjet mablag'lari	100,0	52,8	2,5
davlat maqsadli fond mablag'lari	361,8	172,9	9,0
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	50,5	182,0	1,2
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>3502,9</b>	<b>137,8</b>	<b>87,3</b>
korxonalarining o'z mablag'lari	1146,6	82,0	28,5
aholi mablag'lari	1182,9	140,1	29,5
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	99,1	168,5	2,5
tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	1074,3	2,3 martta	26,8


**2018 yil yanvar-sentyabrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi**

	<i>Jami</i>	<i>Davlat</i>	<i>Nodavlat</i>
<b>Jami, mlrd. so‘m</b>	<b>4015,2</b>	<b>918,5</b>	<b>3096,7</b>
<i>shu jumladan: umumiy hajmga nisbatan foiz ko‘rinishida</i>	100	100	100
qurilish-montaj ishlari	2672,1	804,6	1867,5
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlar	1188,7	82,7	1106,0
Boshqa harajatlar	154,4	31,2	123,2


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining tuzilishi 2017 yil yanvar-sentyabr nisbatan qurilish-montaj ishlarning ulushi 15.7 foiz punktga kamaygan, mashina, uskunalar, transport vositalari, ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlar qiymati ulushi 19,4 foizli punktga ko‘paydi va boshqa harajatlarning ulushi 3,7 foizli punktga kamaygan.

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning ulushlari**

2018 yil yanvar-sentyabr




2017 yil yanvar-sentyabr



- markazlashgan
- markazlashmagan

**2018 yil yanvar – sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar  
(jamiga nisbatan foizda)**



**Ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish**

2018 yil yanvar-sentyabrda umumiy maydoni 742,9 ming kv.m. bo'lgan 5096 ta (2017 yil yanvar-sentyabrtga nisbatan 114.2 foiz), shu jumladan qishloq joylarida 617,8 ming kv.m. 113,1 foiz) uy-joy foydalanishga topshirildi. Noishlab chiqarish sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmidan 1194,1 mlrd. so'mni yoki 29,7 foizi uy-joy qurilishida o'zlashtirildi. Kommunal qurilish sohasida 149,4 km uzunlikdagi ichimlik suvi, 19,5 km uzunlikdagi gaz tarmoqlari ishga tushirildi, bu 2017 yil yanvar-sentyabrga nisbatan mos ravishda 79,1 va 46,3 foizni tashkil qildi.

Ichimlik suvi tarmoqlari qurilishiga aholi mablag'lari hisobiga 1721,4 mln.so'm, gaz tarmoqlari qurilishiga esa 574,0 mln. so'm miqdorida investitsiyalar o'zlashtirildi.